

***O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI***

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

“O'zbek adabiyoti tarixi”
fanidan 2-kurs talabalari uchun
mustaqil ish topshiriqlari
(Uslubiy ko'rsatma)

Navoiy -2006

Mazkur uslubiy ko'rsatmada o'zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs talabalarining "O'zbek adabiyoti tarixi" fanidan mustaqil ishlarni bajarish uchun zaruriy uslubiy ko'rsatma va topshiriqlar, zarur adabiyotlar va internet manzillarida mavjud saytlar berilgan. Uslubiy ko'rsatma o'zbek filologiyasi fakulteti talabalariga mo'ljallangan.

Uslubiy ko'rsatma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining muvofiqlashtiruvchi Ilmiy kengashi tomonidan 2004-yil 2-fevralda tasdiqlangan namunaviy dasturi asosida hamda OO'MTVning "Talabalar mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to'g'risidagi Nizomi"ga muvofiq tuzildi.

Tuzuvchilar: *T.R.Xo'jayev,*
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

M.Xudoyorova,
"O'zbek adabiyoti" kafedrası o'qituvchisi.

Mas'ul muharrir: *M.Farmonova,*
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar: *A.Zayniddinova,*
filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

O.Qayumov,
filologiya fanlari nomzodi.

Uslubiy ko'rsatma NDPI O'zbek filologiyasi fakulteti Ilmiy uslubiy kengashining 2006-yil 26-avgustdagi yig'ilishida muhokama etilib nashrga tavsiya qilingan.

1-mavzu: Navoiyning hayoti va ijodi
(8 soat)
Uslubiy ko'rsatma

Navoiy haqida ilmiy, tarixiy, adabiy asarlarda ma'lumotlar mavjudligi. Shoir shaxsiyati, ijodiyoti, asarlarining yozilish tarixi haqida o'z asarlari ham manba ekanligi "Xazoyin ul – maoniy", "Xamsa", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Majolisun – nafois", "Vaqfiya", "Munshaot", "Xamsat ul – mutahayyirin", "Xolati Pahlavon Muhammad" kabi asarlaridagi ma'lumotlar. Shuningdek, Navoiy zamondoshlari – Xondamir, Mirxond, D.Samarqandiy, Z.Vosifiy, A.Jomiy, Bobur asarlarida shoir tarjimai holi, shaxsiyati, ijodi, asarlariga berilgan baho, madaniyat va boshqalar sohasidagi faoliyati bilan bog'liq qaydlar.

Topshiriqlar:

1. Navoiyning yuqorida qayd etilgan asarlarini topib o'qing, shoirning hayoti va ijodiga aloqador ma'lumotlarni to'plab, guruhlashtiring.
2. Xondamirning " Makorim ul –axloq", Z.Vosifiyning "Badoe' ul-vaqoe", I.Sultonning "Navoining qalb daftari" kitoblarini o'qib, konspekt qiling.
3. Alisher Navoiyning hayoti yoritilgan badiiy asarlarni (ayniqsa Oybek asarlari) o'qing.
4. To'plagan ma'lumotlaringiz asosida " Shoirning bolaligi", "Navoiyning ayrim asarlarining yozilish tarixi", "Navoiyning tarjimai holi", "Shoir voyaga yetgan muhit", "Navoiy ijod va ijodkor haqida", "Hayot va ijod mashaqqatlari" kabi mavzulardan biriga ilmiy matn yuzing.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy MAT. 20 tomlik. T., 1987-2004.
2. Xondamir. Makorim ul-axloq. T., 1967
3. Zayniddin Vosifiy. Badoe ul-vaqoe. T., 1979.
4. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo'stoni. T., 1981.
5. Bobur. Boburnoma. T., 1960.
6. I.Sulton. Navoiyning qalb daftari. Asarlar. 3-tom. T., 1973.
7. A.Qayumov. Alisher Navoiy. T., 1988.
8. Oybek. Navoiy. Roman. T., 1995.

2-mavzu: Navoiy she'riyati
(4 soat)
Uslubiy ko'rsatma

Navoiyning lirik merosiga e'tibor qaratiladi. "Xazoniy ul-maoniy" kulliyoti topiladi. Undagi devonlar o'qiladi. Janr va mavzular aniqlanadi. G'azal, ruboiy, qit'a, fard, muxammas, tuyuq kabi janrlarning o'ziga xosligi, tuzilishi, mavzu rang-barangligi o'rganiladi. Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar o'qiladi. She'rlar tahlil etiladi.

Topshiriqlar:

1. Navoiyning "Xazoyin ul- maoniy" devonini topib , to'liq o'qib chiqing.
2. Yo. Ishoqovning "Navoiyning ilk lirikasi", A.Hayitmetovning "Navoiy lirikasi", I. Haqqulning "Kamol et kasbkim..." kitoblarini o'qib, konspekt qiling.
3. "Navoiy ruboiylari mavzulari", "Shoir qit'alarining o'ziga xosligi", "Navoiy fardlarida islomiy g'oyalar talqini" kabi mavzulardan biri bo'yicha ilmiy matn tuzing.
4. Turli jurnal va gazetalardan (keyingi 2-3 yilda) Navoiy sheriyati talqiniga bag'ishlangan ilmiy maqolalardan har 10 tasini o'qib, konspekt qiling.
5. Shoirning tahlil etilmagan turli janrdagi she'rlaridan 5-10 tadini tahlil qiling.
6. Har bir janrdagi (g'azal, ruboiy, qit'a, tuyuq, fard, v.b.) she'rlardan 5-7 tadan oling.

Adabiyotlar :

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. T., 1999.
2. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., 1999.
3. N.Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob. T., 1963
4. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 2-tom. T., 1978.
5. O'zbek adabiyoti. 4 tomlik. 2-tom. T., 1959.
6. O'zbek adabiyoti. Darslik. 10-sinf. T., 1999.
7. Xondamir. Makorimul-axloq. T., 1967.
8. Zayniddin Vosifiy. Badoe ul-vaqoe`. T., 1979.
9. V.Zohidov. Ulug' shoir ijodining qalbi. T., 1970.
10. Oybek. Navoiy. Roman. T., 1995.
11. A.Hayitmetov. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. T., 1996.
12. Buyuk siymolar, allomalar. 2-kitob. T., 1996.
13. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo'stoni. T., 1981.

3-mavzu: Navoiyning badiiy mahorati
(4 soat)
Uslubiy ko'rsatma

Navoiyning shoirlik iqtidori, she'riyatidagi o'ziga xoslikni yoritish. Badiiy mahorat qirralarini belgilab olish. Shoir lirikasidagi bitta- ikkita jihatni (mavzu tanlash va yoritish, obrazlar tasviri, hayot manzaralarini chizish, so'z ishlatish, xalq urf-odatlarining ifodasi, qofiya, radif, she'riy she'riy san'atlar, turli badiiy vositalar va boshqalar, e'tiborga olib, mahoratini ochib berish.

Topshiriqlar:

1. A.Rustamovning "Navoiyning badiiy mahorati",
Y.Ishoqovning "Navoiyning poetikasi" kitoblarini o'qib,
konspekt qiling.
2. "Navoiy she'riyatida qofiya va radif", "Navoiy g'azallarida
ma'naviy san'atlar", "Shoir she'riyati obrazlari", "Navoiy
lirikasida tabiat tasviri" kabi mavzularidan biri bo'yicha ilmiy
matn tuzing.
3. Jurnallarda (keyingi 4-5 yilda) shoir badiiy mahoratiga doir
chop etilgan maqolalardan 5-10 tasini konspekt qiling.

Adabiyotlar:

1. Darsliklar.
2. A.Navoiy. "Mukammal asarlar to'plami". T.,1987-97 y.
3. M. Shayxzoda. Asarlar. 6-tomlik, 4-tom. T. ,1972.
4. A.Navoiy. "Xazoyinul maoniy". T. ,1960.
5. A.Navoiy. "Qaro ko'zim". T. ,1988.
6. A.Navoiy. "Topmadim". T. ,1988.
7. A.Hayitmetov. "Navoiy lirikasi". T. ,1961.
8. A.Hayitmetov. "Navoiyxonlik suhbatlari". T. ,1993.
9. A.Hayitmetov. "Temuriylar davri o'zbek adabiyoti". T.,1996.
10. A.Hayitmetov. "Adabiy merosimiz ufqlari". T. ,1997.
11. N.Komilov. "Tasavvuf". 1-kitob. T. ,1996.
12. A.Rustamov. "Navoiyning badiiy mahorati". T. ,1997.
13. Yo.Is'hoqov. "Navoiyning ilk lirikasi". T. ,1965.
14. Yo.Is'hoqov. "Navoiy poetikasi". T. , 1980.
15. M.Hakimov. "Navoiy lirikasi va xalq og'zaki ijodi". T. 1979.
16. O.Nosirov. "O'zbek adabiyotida g'azal". T. , 1972.
17. Navoiy va ijod saboqlari. T. , 1981.
18. I.Haqqul. "Tasavvuf va she'riyat". T. , 1991.
19. I.Haqqul. "Kamol et kasbkim". T. , 1991.
20. I.Haqqul. "G'azal gulshani". T. , 1991.

21. I.Haqqul. *“Zanjirband sher qoshida”*. T., 1989.
22. I.Haqqul. *“O‘zbek adabiyotida ruboiy”*. T., 1981.
23. S.Olim. *“Naqshband va Navoiy”*. T., 1996.
24. S.Olim. *“Ishq, oshiq va ma‘shuq”*. T., 1992
25. N.Jumaxo‘ja. *“Asrlar silsilasidagi satrlar”*. T., 1996.

4-mavzu: “Xamsa”
(6 soat)
Uslubiy ko‘rsatma

Navoiy “Xamsa”si to‘liq o‘qib chiqiladi. Dostonlar o‘qilib, ulardagi masalalar, obrazlar, shoirning mahorati kabi jihatlarga e‘tibor beriladi. Har bir dostonning o‘ziga xosligi aniqlanadi. Asardagi dunyoviy va tasavvufiy g‘oyalarni belgilab olishga harakat qilinadi.”Xamsa” bo‘yicha chop etilgan ilmiy manbalar o‘qiladi. Tahlil qilishga e‘tibor beriladi.

Topshiriqlar:

1. “Xamsa” dostonlarini to‘liq o‘qib chiqing.
2. Dostonlardan she‘riy parchalarni tahlil qiling.
3. A.Qayumovning “Farhod va Shirin” sirlari”,
A.Abdug‘afurovning “Buyuk beshlik saboqlari”,
S.Hasanovning “Navoiyning yetti tuhvasi”, A.Hayitmetovning “
Temuriylar davri o‘zbek adabiyoti” kitoblarini o‘qib, konspekt qiling.
4. N.Komilovning “Tasavvuf” kitobidan “Farhod va Shirin”,
“Layli va Majnun”ga doir qismini gapirib berishga tayyorlaning
5. Jurnallardan (keyingi 4-5 yilda) “Xamsa”ning yangicha talqinlariga doir maqolalardan 5-10 tasini konspekt qiling.
6. Har bir dostondan 20-25 misra yod oling.

Adabiyotlar:

1. I.A.Karimov. *Barkamol avlod orzusi*. T., 1999.
2. I.A.Karimov. *O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda*. T., 1999.
3. N.Mallayev. *O‘zbek adabiyoti tarixi*. 1-kitob. T., 1963.
4. *O‘zbek adabiyoti tarixi*. 5 tomlik. 2-tom. T., 1978.
5. *O‘zbek adabiyoti*. Darslik. 10-sinf. T., 1999.
6. E.E.Bertels. *Navoi*. M., 1948.
7. E.E.Bertels. *Jami-Navoi*. M., 1948
8. I.Sulton. *Navoiyning qalb daftari*. T., 1969.

9. Xondamir. *Makorim ul-axloq*. T., 1967.
10. Zayniddin Vosifiy. *Badoe`ul-vaqoe`*. T., 1979.

5-mavzu: Navoiy-adabiyotshunos
(4 soat)
Uslubiy ko'rsatma

Navoiy adabiy merosining bir qismini adabiyotshunoslikka oid asarlari tashkil etishi. Navoiyning so'z, mazmun va shakl, nazm va nasrga doir qarashlari. "Majolisun-nafois" taskirasi, uning tuzilishi, badiiy adabiyotga doir fikrlar. "Mezon ul-avzon"da aruzga doir ma'lumotlar. Undagi she'riy misralar.

Topshiriqlar:

1. Navoiyning "Xamsa"da so'z, she'r va shoirlik, mazmun va shakl haqidagi fikrlarini aniqlang.
2. "Majolisun-nafois"ni to'liq o'qing, konspekt qiling, biror majlisni gapirib berishga tayyorlaning.
3. A.Hojiahmedovning "Maktabda aruz vaznini o'rganish" kitobini konspekt qiling.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. MAT.20 tomlik.7-11-tomlar.T., 1991-1993.
2. Alisher Navoiy. *Majolisun-nafois*.T., 1961.
3. Alisher Navoiy. MAT.20 tomlik.16-tom. T., 2000.
4. A.Hojiahmedov. *Maktabda aruz vaznini o'rganish*.T., 1994.
5. S.G'aniyeva. *Davr adabiy hayoti ko'zgusi*. T., 1961.

6-mavzu: Navoiyning nasriy asarlari
(6 soat)
Uslubiy ko'rsatma

Navoiy adabiy merosining bir qismini nasriy asarlar tashkil etishi. "Holoti Pahlavon Muhammad", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Xamsat ul-mutahayyirin", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Tarixi muluki Ajam" asarlariga e'tibor qaratiladi."Nasoyim ul-muhabbat"dagi tasavvufiy g'oyalarni o'rganish.

Topshiriqlar:

1. Navoiyning yuqorida ko'rsatilgan nasriy asarlarini o'qing.
2. "Alisher Navoiy nasrining janrlar bo'yicha tasnifi",
"Holotlar"da hayotiy lavhalar va tarixiy shaxslar portreti",
"Nasoyim ul-muhabbat"da tasavvuf haqidagi fikrlar"
mavzularidan biriga ilmiy matn tuzing.
3. Shoirning nasriy asarlariga doir ilmiy kitoblardan 3- 4 tasini
konspekt qiling.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. MAT.20 tomlik.15-tom. T., 1999.
2. Alisher Navoiy. MAT.20 tomlik.16-tom. T., 2000.
3. Alisher Navoiy. MAT.20 tomlik.17-tom. T., 2001.

7-mavzu: Mumtoz adabiyotda she'riy san'atlar (6 soat)

Uslubiy ko'rsatma

She'riy san'atlar haqida. Ma'naviy va lafziy san'atlar. Talmeh, iyhom, tajohilu orif, irsoli masal, tashbeh, tamsil, mubolag'a kabi ma'naviy san'atlar, tarse, tajnis, tashtir, hojib, ishtiyoq, tardu aks, tazod kabi lafziy san'atlar haqida nazariy ma'lumot olinadi.

Topshiriqlar:

1. Atoulloh Husayniyning "Badoyi' us-sanoyi" kitobini topib
o'qing va konspekt qiling.
2. A.Hojiahmedovning "She'riy san'atlar va mumtoz qofiya",
T.Boboyevning "She'r ilmi ta'limi kitoblarini o'qing va
gapirib berishga tayyorlaning.
3. O'zingiz tanlagan biror shoir asarlari asosida she'riy san'at
bo'yicha ilmiy matn tayyorlang.
4. She'riy san'atlar bo'yicha 4-5 ta ilmiy maqolalarni konspekt qiling.

Adabiyotlar:

1. Atoulloh Husayniy. Badoyi' us-sanoyi. T., 1981.
2. A.Hojiahmedov. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. T.,1988.
3. A.Hojiahmedov. Mumtoz badiiyat malohati.T., 1999.
4. T.Boboyev. She'r ilmi ta'limi. T., 1996.
5. V.Rahmonov. She'r san'atlari.T., 1972.

6. S.Aliyev. *Mumtoz adabiyotimizda badiiy san'atlar*. Buxoro, 1994.
7. Y.Is'hoqov. *Navoiy poetikasi*. T., 1983.

8-mavzu: *Bobur she'riyati va "Boburnoma" asari*
(6 soat)
Uslubiy ko'rsatma

Bobur devoni o'qiladi. She'riyatining janr va mavzulari aniqlanadi. Oshiq, ma'shuqa, raqib va boshqa timsollar. G'azal, ruboiy, qit'a, fardlari tahlil qilinadi. "Boburnoma" o'qiladi. Joy, shaxslar tasviri, badiiy xususiyatlarga e'tibor qaratiladi.

Topshirqlar:

1. Boburning lirik devoni va "Boburnoma"ni to'liq o'qing.
2. Bobur g'azal, ruboiy, qit'a v.b. janrdagi she'rlaridan (darsliklarga kirmagani) 8-10 tasini tahlil qiling.
3. "Boburning badiiy mahorati", "Shoir she'riyatida badiiy san'atlar", "Bobur ruboiylari mavzulari", "Boburning diniy - ma'rifiy asarlari" mavzularidan biriga ilmiy matn tuzing.
4. Shoir g'azal, ruboiy, fard v.b. janrdagi she'rlaridan 5-10 tadan yod oling.
5. "Boburnoma"dagi biror mavzuni gapirib berishga tayyorlaning

Adabiyotlar:

1. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 3-tom. T., 1980.
2. Bobur. *Boburnoma*. T., 1989.
3. Gulbadanbegim. *Humoyunnoma*. T., 1998.
4. Buyuk siymolar, allomalar. 2-kitob. T., 1996.
5. I.Hoshimov. *Hindistonda boburiylar sulolasi saltanati*. T., 1996.
6. M.Nuritdinov. *Boburiylar sulolasi*. T., 1994.
7. I.Mirzayev. *Bobur ma'rifati*. T., 1996.
8. P.Qodirov. *Yulduzli tunlar*. T., 1990.
9. P.Qodirov. *Humoyun va Akbar*. T., 1994.
10. Boburning «maxfiy vasiyatnoma»si. O'z AS gazetasi. 1998 yil 27 noyabr.
11. O'z Me. 2-tom. T., 2001. 83-93-betlar.
12. Buyuk siymolar, allomalar. 2-kitob. T., 1996.
13. O'zbek adabiyoti. Darslik. 10-sinf. T., 1999.

14. A.Abdug'afurov. *Qalb qa'ridagi qadriyatlar*. T., 1998.
15. B.Mamedov. «Boburnoma» va xalq og'zaki ijodi. T., 1989.

9-mavzu: XVII-XIX asrlar I yarmida adabiy aloqalar
(6 soat)
Uslubiy ko'rsatma

XVII-XIX asrlardagi tarixiy sharoit, madaniy va adabiy muhit bilan yaqindan tanishish. Bu davrdagi adabiy aloqalar va ularning turli shakl va ko'rinishlardagi davomi. Fuzuliy, Andalib, Bedil, Maxtumduli kabi shoirlar asarlarining o'zbek kitobxonlari orasiga tarqalishi.

Ikki qardosh xalq uchun ijodi mushtarak bo'lgan shoirlar hayoti va ijodini o'rganish muammosi.

Tarjima-adabiy aloqaning muhim shakli sifatida.

Topshiriqlar:

1. Bu davrdagi adabiy aloqalar bilan tanishing.
2. Fuzuliy, Andalib, Bedil, Maxtumduli kabilarning devonlarini toping va o'qing.
3. "Qardosh xalq shoirlari ijodida Alisher Navoiyning ta'siri" mavzusida ilmiy matn tayyorlang.
4. Fuzuliy, Andalib, Bedil, Maxtumduli kabi shoirlar asarlaridan yod oling.

Adabiyotlar:

1. Bedil. *Ruboiylar*. T., 1974.
2. Bedil. *Komde va Mudan*. T., 1960.
3. Maxtumduli. *G'azallar*. T., 1999.
4. *Asrlar nidosi*. T., 1982.
5. Abdullayev V. *O'zbek adabiyoti tarixi*. 2-kitob. T., 1980.
6. *Buyuk siymolar, allomalar*. 3-kitob. T., 1997.
7. *O'zbek adabiyoti tarixi*. 5 tomlik. 3-tom. Toshkent: «Fan», 1978.
8. Qosimov B., To'xliyev B., Yo'ldoshev Q. *10-sinf uchun darslik*. Toshkent: «O'qituvchi», 2004.
9. Qayumov A. *Qo'qon adabiy muhiti*. T., 1981.

10-mavzu: Mashrab she'riyati va "Shoh Mashrab" qissasi
(6 soat)
Uslubiy ko'rsatma

Mashrab va uning adabiy merosi haqida ma'lumot. Shoir shaxsiyati va dunyoqarashining badiiy ijodga ta'siri. Mashrab g'azallari o'qiladi. Mashrab hayoti va ijodini o'rganishda "Shoh Mashrab" qissasining o'rni. Shoir faoliyatining tasavvuf bilan bog'liqligi. "Shoh Mashrab" dagi she'rlar, afsona va rivoyatlarning o'ziga xosligi va ahamiyati. Keyingi yillarda ilmiy adabiyotlardagi Mashrab faoliyati bilan bog'liq bahslar.

Topshiriqlar:

1. Boborahim Mashrabning hayoti va ijodiy merosi bilan to'la tanishib chiqing.
2. Shoir g'azallaridan 5-7 tasini tahlil qiling.
3. Mashrab hayoti haqida ma'lumot beruvchi "Shoh Mashrab" qissasini toping va o'qib chiqing.
4. Devondagi qissa va rivoyatlarni ilmiy adabiyotlardagi aniq ma'lumotlar bilan taqqoslang va tahlil qiling.
5. "Shoh Mashrab qissasi" dagi she'rlarning badiiy xususiyatlari "Shoh Mashrab" qissasi she'rlarining mualliflari mavzuida ilmiy matn tayyorlang.
6. Mashrab g'azallaridan yod oling.

Adabiyotlar:

1. Shoh Mashrab qissasi. T., 1991.
2. Ishoq Bog'istoniy. Tazkirai qalandaron. "Sharq yulduzi" jurnali. 1990. №8.
3. Boborahim Mashrab. Mehribonim qaydasan. T., 1990.
4. M. Zokirov. Mashrab. T., 1966.
5. A. Abdug'afurov. Qalb qa'ridagi qadriyatlar. T., 1999.

11-mavzu: Shermuhammad Munis -murabbiy va tarixchi
(4 soat)
Uslubiy ko'rsatma

Shermuhammad Munis yashagan tarixiy sharoit va adabiy muhit. Shoir merosining o'rganilishi. Munisning axloqiy-ta'limiy qarashlari "Savodi ta'lim" she'riy risolasi yaratilishi. Risolada savod chiqarishga oid mashqlarning ijtimoiy qimmati. "Savodi ta'lim" ning ilmiy-ma'rifiy ahamiyati. O'z davrining yirik tarixchisi va tarjimoni bo'lgan Munisning adabiyotimiz tarixida tutgan o'rni. Shoir ijodiyotining o'z davri va o'zidan keyingi san'atkorlarga ijobiy ta'siri.

Topshiriqlar:

1. *Munis devonini to'liq o'qib chiqing.*
2. *Shoir lirikasida qo'llangan ma'naviy va lafziy san'atlarga misollar toping va tahlil qiling.*
3. *Munisning tarixchilik va tarjimonlik faoliyatini ilmiy tadqiq qilgan olimlarning ilmiy maqolalarini diqqat bilan o'rganing.*
4. *"Munis-tarixchi va tarjimon" mavzusida konspekt tayyorlang.*
5. *Munisning g'azallaridan 5-7 ta yod oling.*

Adabiyotlar:

1. *Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. 2-kitob. T., 1980.*
2. *Axmedov T. Munis. «Fan» nashriyoti. T., 1980.*
3. *Jumayev N. Munis g'azaliyoti. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. T., 1991.*
4. *Zohidov V. O'zbek adabiyoti tarixidan. T., 1961.*
5. *Karimova F. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. 2004 yil, 3-son.*
6. *Munirov Q. Munis. Ogahiy va Bayoniylarning tarixiy asarlari. T., 1960.*
7. *Sharipov J. O'zbekistonda tarjima tarixidan. T., 1965.*
8. *Yusupov Yu. Munis Xorazmiy. O't chaqnagan satrlar. T., 1983.*
9. *O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 4-tom. T., 1978.*
10. *Hasanov S. Xorazm ma'rifati – olam ko'zgusi. Toshkent: "O'qituvchi", 1996.*

12-mavzu: Nodira gʻazaliyoti

(4 soat)

Uslubiy koʻrsatma

Mohlaroyim Nodiraning ijodkor va davlat arbobi sifatidagi faoliyati. Oʻziga zamondosh shoirlar rahnamosi sifatida. Shoiraning adabiy merosi koʻlami. Oʻzbekcha va forsha gʻazallari. Shoiraning ijodining taraqqiyot bosqichlari.

Gʻazallarida ayol timsolini yaratishdagi sanʼatkorligi. Nodira sheʼriyatining badiiyati. Qofiya va radifdagi mahorat. Ijodkor asarlarida xalq ogʻzaki ijodiyotining taʼsiri.

Topshiriqlar:

1. Nodira devonini topib, oʻqib chiqing.
2. Shoiraning oʻzingiz yoqtirgan 5-7 ta gʻazalini yod oling va tahlil qiling.
3. Nodiraning hayoti va ijodi aks etgan T.Jalolovning “Oʻzbek shoirlari” va M.Qodirovaning “Nodira hayoti va ijodi” monografiyalarini oʻqing va konspektlashtiring.
4. “Nodira gʻazaliyotida lirik qahramon” degan mavzuni gapirib berishga tayyorlaning.
5. Institutning “Oʻzbek adabiyoti tarixi” saytidan Nodira ijodiga bagʻishlangan, keyingi yillarda qilingan ilmiy tadqiqotlar bilan tanishing.

Adabiyotlar:

1. Abdullayev V. Oʻzbek adabiyoti tarixi, 2-kitob. T., 1980.
2. Buyuk siymolar, allomalar. 3-kitob. T., 1997.
3. Jalolov T. Oʻzbek shoirlari. T., 1970.
4. Qayumov A. Qoʻqon adabiy muhiti. T., 1961.
1. Qodirova M. Nodira. Toshkent: «Fan», 1965.
2. Qodirova M. Nodira va Navoiy. «Adabiy meros». 1-kitob. T., 1968.
3. Qodirova M. Nodira hayoti va ijodi. T., 1967.
4. Qodirova M. Davr Nodirasi. T., 1991.

13-mavzu: Uvaysiy
(4 soat)
Uslubiy ko'rsatma

Jahon Otin Uvaysiy XIX asrning birinchi yarmida etishgan atoqli shoira. Shoira hayoti va ijodining o'rganilishi. Uvaysiy devoni. Devon mundariyasi va janr xususiyatlari. Uvaysiy g'azallarining mavzu yo'nalishi. Shoira she'riyatini oshiqona, orifona, tarjimai hol mazmuni yo'nalishidagi tasnifi va tahlili. Ijodkor g'azallarida tasavvufona ohanglar. Uvaysiyning badiiy mahorati. Shoira g'azallarida tashbeh, takrir, irsoli masal san'atlarining o'ziga xos namunalari. Uvaysiyning nasriy merosi va uning o'rganilishi.

Topshiriqlar:

1. Uvaysiy merosi bilan to'liq tanishing.
2. Shoira ijodida namoyon bo'ladigan so'fiyona yo'nalish haqida og'zaki gapirib berishga tayyorlaning.
3. Shoira she'rlarida ayollarga xos fikrlash yo'sini, tuyg'ular tizimi ko'ringan o'rinlarni toping va tahlil qiling.
4. I.Haqqulovning "Uvaysiy she'riyati" kitobini o'qing va konspektlashtiring.
5. Jahon Otin Uvaysiy g'azal va chistonlaridan 5-7 tadan yodlang.

Adabiyotlar:

1. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. 2-kitob. T., 1980.
2. Zohidov V. O'zbek adabiyoti tarixidan. T., 1961.
3. Jalolov T. Go'zallik olamida. T., 1979.
4. Jalolov T. O'zbek shoiralari. T., 1970.
5. O'tkir Rashid. Uch shoira. T., 1958.
6. Qayumov A. Qo'qon adabiy muhiti. T., 1961.
7. Qodirova M. Uvaysiy. Uvaysiy she'riyatidan. T., 1980.
8. Qosimov B. va boshqalar. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. Toshkent: «O'qituvchi». 2004.
9. Haqqulov I. Uvaysiy she'riyati. She'riyat-ruhiy munosabat. T., 1990.
10. Haqqulov I. Uvaysiy she'riyati. Toshkent: «Fan», 1982.

14-mavzu: Ogahiy she'riyati.

(4 soat)

Uslubiy ko'rsatma

Ogahiy devoni topiladi va o'qiladi. She'riyatining janr va mavzulari aniqlanadi. Ogahiyning badiiy mahoratiga e'tibor qaratiladi. Turli janrdagi she'rlari tahlil qilinadi. Tanlagan she'rlaridan yod olinadi.

Topshiriqlar:

1. Ogahiy devonini toping va o'qing.
2. Ogahiy ijodi bo'yincha chop etilgan "Ogahiy shoir, tarixchi, tarjimon" kitobini o'qib konspekt qiling.
3. "Ogahiy she'riyatida badiiy san'atlar", "Ogahiyning badiiy mahorati" mavzularidan biriga ilmiy matn tuzing.
4. Shoirning turli janrdagi she'rlaridan 10-15 tasini tahlil
5. Shoir she'rlaridan 5-10 ta yod oling.
6. Ogahiy tavalludining 190-yilligiga bag'ishlangan "Ogahiy shoir, tarixchi, tarjimon" kitobini o'qish va konspektlashtiring.
7. "Ogahiy tarixchi va tarjimon" mavzusida konspekt tayyorlang.
8. Sa'diy Sheroziyning "Bahoriston" asarini Ogahiy tarjimasida o'qish.

Adabiyotlar:

1. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. 2-kitob. T., 1980.
2. Abdug'afurov A. O'zbek demokratik adabiyotida satira. T., 1960.
3. Zohidov V. Ogahiy. «O'zbek adabiyoti tarixidan». T., 1961.
4. Abdug'afurov A. Ogahlar ogohi. Ishq ahlining tumori. T., 1999.
5. Karimov G', Dolimov S. Muhammad Rizo Ogahiy. Ogahiy. Asarlar. 6 jildlik. 1-jild. T., 1971.
6. Karimova F. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2004. 3-son.
7. Majidiy R. Ogahiy lirikasi. T., 1963.
8. Ogahiy shoir, tarixchi, tarjimon. Maqolalar to'plami. T., 1999.
9. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 4-tom. Toshkent: «Fan», 1978.
10. O'rozboyev A. Ogahiy asarlarida oy bilan bog'liq terminlar. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2002. 5-son.
11. Qosimov B. va boshqalar. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. Toshkent: "O'qituvchi", 2004.
12. Haqqulov I. Ogahiy badiiy ijod qonuniyatlari haqida. She'riyat-ruhiy munosabat. T., 1990.

15-mavzu: Ogahiy tarixchi va tarjimon
(4 soat)
Uslubiy ko'rsatma

Muhammad Rizo Ogahiy XIX asr Xorazm adabiy muhitining eng yirik vakili sifatida. Ogahiy-tarixchi va tarjimon, davlat arbobi. "Firdavs ul-iqbol", "Riyoziy ul davla", "Zubdat ut tavorix", "Jome'ul-voqeot", "Gulshani davla" kabi tarixiy asarlarining Xorazm tarixini o'rganishda muhim manba ekanligi. Adabiyotimiz tarixida o'n to'qqizta yirik asarning tarjimoni sifatida o'ziga xos o'rni. Sa'diy, Hiloliy, Jomiy kabi ijodkorlarning asarlaridan qilgan tarjimalarining badiiy yetukligi.

Topshiriqlar:

9. Ogahiyning ilmiy asarlarini to'plang va mutolaa qiling.
10. Ogahiy tavalludining 190-yilligiga bag'ishlangan "Ogahiy shoir, tarixchi, tarjimon" kitobini o'qish va konspektlashtiring.
11. "Ogahiy tarixchi va tarjimon" mavzusida konspekt tayyorlang.
12. Sa'diy Sheroziyning "Bahoriston" asarini Ogahiy tarjimasida o'qish.

Adabiyotlar:

13. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. 2-kitob. T., 1980.
14. Abdug'afurov A. O'zbek demokratik adabiyotida satira. T., 1960.
15. Zohidov V. Ogahiy. «O'zbek adabiyoti tarixidan». T., 1961.
16. Abdug'afurov A. Ogahlar ogohi. Ishq ahlining tumori. T., 1999.
17. Karimov G', Dolimov S. Muhammad Rizo Ogahiy. Ogahiy. Asarlar. 6 jildlik. 1-jild. T., 1971.
18. Karimova F. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2004. 3-son.
19. Majidiy R. Ogahiy lirikasi. T., 1963.
20. Ogahiy shoir, tarixchi, tarjimon. Maqolalar to'plami. T., 1999.
21. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 4-tom. Toshkent: «Fan», 1978.
22. O'rozboyev A. Ogahiy asarlarida oy bilan bog'liq terminlar. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2002. 5-son.
23. Qosimov B. va boshqalar. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. Toshkent: "O'qituvchi", 2004.
24. Haqqulov I. Ogahiy badiiy ijod qonuniyatlari haqida. She'riyat-ruhiy munosabat. T., 1990.

16-mavzu: XIX asr II yarmi va XX asr boshlari adabiyoti
(4 soat)
Uslubiy ko'rsatma

Bu davrning tarixiy sharoiti va madaniy hayoti. Madaniy hayotda ma'rifatparvarlik jarayonining milliy taraqqiyot, ozodlik va mustaqillik g'oyalari bilan bog'lanishi. Ma'rifatparvarlik jarayonining taraqqiy etishida Ahmad Donish, Ibrat, Nodim, Zoriy, Rojiy, Furqat kabi shoirlarning o'rni.

Ma'rifatparvarlik adabiyotining yangi g'oyaviy-estetik negizi, mavzusi, obrazlar sistemasi, yangi badiiy shakllari va til xususiyatlari.

Ahmad Donish, Ibrat Nodim, Zoriy, Rojiy kabi taraqqiyparvar shoirlarning asarlari bu davrning etakchi g'oyasi, bosh yo'nalishi ekanligi.

Topshiriqlar:

1. Bu davr madaniy hayoti va badiiy adabiyoti bilan tanishing.
2. Ahmad Donish, Ibrat Nodim, Zoriy, Rojiy kabi shoirlarning asarlari bilan tanishing.
3. Yuqoridagi ijodkorlardan o'zingiz tanlagan birortasining ijodidagi-badiiy xususiyatlarini tahlil qiling.
4. Shoirlar she'rlaridan namunalar yodlang.

Adabiyotlar:

1. Axmedov B. O'zbekiston tarixidan saboqlar. Toshkent: «O'qituvchi», 1992.
2. Bobobekov H. Rossiya O'rta Osiyoni bosib olganmi? «Fan va turmush» jurnali, 1989. 8-son.
3. Jalolov A., O'zganboev H. O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining taraqqiyotida vaqtli matbuotning o'rni. Toshkent: «Fan», 1993.
4. Murodov A. O'rta Osiyo xattotlik san'ati tarixidan. Toshkent: «Fan», 1971.
5. Xo'jayev F. Buxoro revolyuciyasi tarixiga doir. Tanlangan asarlar. 1-tom. Toshkent: «Fan», 1976.
6. Xudoyqulov M. Hajvning hayotbaxsh ruhi. "O'zbek tili va adabiyoti", 2003. 3-son.
7. O'zbekiston xalqlari tarixi. 2 jildlik. 2-jild. Toshkent: «Fan», 1993.
8. O'zbekiston tarixi va madaniyati. Ma'ruzalar to'plami. Toshkent: «O'qituvchi», 1992.
9. Qosimov B. va boshqalar. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. Toshkent: «O'qituvchi», 2004.

10. *Hojiyeva Iroda. Tazkiralarda sultoniyl ta'rifl. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 2004. 6-son.*

17-mavzu: *Muqimiy sayohatnomalari va hajviyoti*
(2 soat)

Uslubiy ko'rsatma

Muqimiy ma'rifatparvarlik davri adabiyotining yirik vakili. Muqimiy ijodining muhim qismini hajviy asarlari tashkil etishi. Shoir hajviyoti va u yashagan davr.

Muqimiy hajviy asarlari mavzusining kengligi va timsollarining rang-barangligi. Hajviy yo'nalishdagi asarlarda til va uslub.

Yangi turdagi sayohatnoma janrining o'zbek adabiyotida shakllanishida Muqimiyning o'ziga xos o'rni.

Shoir "Sayohatnoma"ning syujeti va kompozitsiyasi. Uning badiiy xususiyati va tili.

Topshiriqlar:

1. *Muqimiyning hajviy asarlari bilan to'liq tanishing.*
2. *"Muqimiy hajviyotining til xususiyatlari" mavzusida konspekt tayyorlang.*
3. *A.Abduq'arufovning "Muqimiy satirasi" kitobini konspektlashtiring.*
4. *Shoirning hajviy asarlaridan 4-5 tasini yodlang.*

Adabiyotlar:

1. *Abduq'afurov A. Muqimiy satirasi. T., 1976.*
2. *Boltaboyev H. Yollangan adabiyot sirlari. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 1998 yil, 4-dekabr.*
3. *Karimov G'. Muqimiy. Hayoti va ijodi. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1970.*
4. *Karimov G'. O'zbek adabiyoti tarixi. 3-kitob. Toshkent: "O'qituvchi", 1975.*
5. *Karimov N., Nazarov B., Normatov U., Yo'ldoshev Q., Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. Toshkent: "O'qituvchi", 2004.*
6. *Oybek. Asarlar. 10 tomlik. 9-tom. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974.*
7. *O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 5-tom. T., 1980.*

18-mavzu: Furqat - ma`rifatparvar
(2 soat)
Uslubiy ko`rsatma

Zokirjon Furqat hayoti va ijodi. Furqat-ma`rifat va madaniyat jarchisi. Shoir ijodida ma`rifatparvarlikning yangi bosqichga ko`tarilishi. "Gimnaziya", "Ilm xosiyati", "Teatr haqida manzuma", "Akt majlisi xususida", "Vistavka xususida" turkum asarlarida zamonaviylik va lirik qahramon masalasi.

Furqatning ma`rifatparvarlik mavzuida yozilgan she`rlarida badiiyat va janr xususiyatlari.

Topshiriqlar:

- 1. Furqatning ma`rifatparvarlik ruhidagi asarlari bilan to`liq tanishing.*
- 2. Furqatning ma`rifiy mavzudagi she`riy asarlari mundarijasini tuzing va tasnif qiling.*
- 3. Shoirning "Ilm xosiyati", "Vistavka xususida" masnaviylarini tahlil qiling.*
- 4. Bu mavzuda asarlardan o`zingiz yoqtirgan 5-6 tasini yodlang.*
- 5. "Furqat - ma`rifatparvar" mavzusida ilmiy matn tayyorlang.*

Adabiyotlar:

- 1. Abdug`afurov A. Zokirjon Furqat (hayoti va ijodi). Toshkent: «Fan», 1977.*
- 2. Zohidov V. Furqat. Donolar davrasi. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1973.*
- 3. Karimov G'. O`zbek adabiyoti tarixi. Uchinchi kitob. Toshkent: «O`qituvchi», 1975.*
- 4. Karimov N. va boshqalar. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. Toshkent: «O`qituvchi», 2004.*
- 5. Xolid Rasul. Furqat. Tanqidiy-biografik ocherk. Toshkent: O`z RFA nashriyoti, 1964.*
- 6. Shayxzoda M. Furqat haqida qaydlar. Asarlar. 5-tom. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1973.*
- 7. Sh.Yusupov. Furqat yo`llarida. Adabiy-tanqidiy maqolalar. Toshkent, 1984.*
- 8. O`zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 5-tom. Toshkent, 1980.*
- 9. Haqqulov I. O`lmas ohanglar. She`riyat-ruhiy munosabat. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1990.*
- 10. Qayumov A. She`riyat jilolari. Toshkent: «O`qituvchi», 1997.*

